

Date: 17th October-2025

**HUQUQBULARLIK LARNING IJTIMOIIY PROFILAKTIKASI
OBJEKTLARINI ANIQLASHDA OMMAVIIY AXBOROT VOSITALARI BILAN
HAMKORLIKNI TAKOMILLASHTIRISH**

Xalilov Javohir Abdurahim o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 3-o'quv kursi kursanti
Javohirhalilov783@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev tomonidan huquqbuzarliklarning ijtimoiy profilaktikasiga qaratayotgan e'tibori va ular Huquqbuzarliklar profilaktika xizmatini asosiy bo'g'in sifatida e'tirof etayotganliklarini va bugungi kunda ijtimoiy yordamga muhtoj axoli qatlami bilan bog'liq huquqbuzarliklar soni kun sayin ortib borayotganligi sababli profilaktika inspektorlari ular o'rtasidagi huquqbuzarliklarning ijtimoiy profilaktikasini amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikni amalga oshirishda kuzatilayotgan muammolar, kamchiliklar va ularning zamonaviy yechimlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Profilaktika, Umumiy, Maxsus, Yakka va Viktimologik Profilaktika, Ijtimoiy profilaktika, Ommaviy axborot vositalari, Ichki va Idoralararo Hamkorlik, Strategik rejalar.

Аннотация: В этой статье рассматривается внимание, которое сегодня уделяет социальной профилактике правонарушений наш президент Шавкат миромонивич Мирзиёев, и что они признают службу профилактики правонарушений в качестве ключевого звена, и что сегодня, поскольку число правонарушений, связанных с социально нуждающимся слоем населения, растет с каждым днем, инспекторы по профилактике должны использовать средства массовой информации для реализации социальной профилактики правонарушений между ними. проблемы, наблюдаемые при осуществлении сотрудничества со средствами, рассказывается о недостатках и их современных решениях.

Ключевые слова: Профилактика, общая, специальная, индивидуальная и виктимологическая профилактика, социальная профилактика, средства массовой информации, внутреннее и межведомственное сотрудничество, стратегические планы.

Annotation: This article talks about the attention of our President Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev to the social Prevention of violations today and the problems, shortcomings and their modern solutions that are observed in the implementation of cooperation with the media in the implementation of social Prevention of violations between them due to the fact that they recognize the preventive service of Huquqbuzarli as the main link and the number of

Keywords: Prevention, General, Special, single and Victimological Prevention, social Prevention, Media, internal and interdepartmental cooperation, strategic plans.



Date: 17th October-2025



Bugungi rivojlanib borayotgan zamonda O'zbekiston Respublikasida jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish bo'yicha ishlar juda jadal davom ettirilmoqda. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ham katta-katta tashabbuslar olib borilmoqda. Huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish jamiyatda qonuniylilikni ta'minlashning asosiy vositasidir. Axoli orasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olishda huquqbuzarliklarning ijtimoiy profilaktikasi muhim ro'l o'ynaydi. Shu bois ommaviy axborot vositalari bilan huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasidagi hamkorlikni takomillashtirish dolzarb vazifadir.¹³ Xususan, Ijtimoiy profilaktika samaradorligi faqat davlat organlari emas, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining faol hamkorligiga bog'liq. Masalan, ommaviy axborot vositalari va huquq-tartibot organlarining o'zaro hamkorligi axolining ijtimoiy ximoyaga muhtoj qatlami orasida salbiy holatlarning oldini olishda muhim rol o'ynaydi.¹⁴

Huquqbuzarliklarning ijtimoiy profilaktikasini amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

□ Huquqbuzarliklarning oldini olish

Axoli orasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni kamaytirish uchun ommaviy axborot vositalarida muntazam huquqiy targ'ibot olib borilishi lozim.

□ Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish

Giyohvandlik, chekish, spirtli ichimliklar iste'moli kabi zararli odatlar bilan kurashishda ommaviy axborot vositalarida sog'lom hayot tarzini ommalashtirish muhimdir.

□ Oila va jamiyatdagi tarbiyani kuchaytirish

Ijtimoiy muammolarning ildizi ko'pincha oiladagi befarqlik yoki noto'g'ri tarbiyada bo'ladi. Shu bois oilalarda farzand tarbiyasi, qadriyatlar va axloqiy me'yorlarga e'tibor kuchaytirilishi zarur.

□ Ma'naviy-ma'rifiy ishlar

Kitobxonlik, san'at, teatr, sport orqali yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga imkon berish – bu salbiy ta'sirlardan himoyalashning eng yaxshi vositalaridan biridir.

Bugungi kunda o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish zamonaviy jamiyatda eng dolzarb ijtimoiy-huquqiy muammolardan biri bo'lib, bu boradagi samarali faoliyat ommaviy axborot vositalari faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Ommaviy axborot vositalari nafaqat huquqbuzarlikni oldini olish, balki shaxsning huquqiy ongini shakllantirish, ijtimoiy normalarga rioya qilish ruhida tarbiyalash, ma'naviy qadriyatlarni singdirish orqali jamiyatda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda faol ishtirok etadi.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

¹⁴ "Huquqbuzarliklar Profilaktikasi" to'g'risidagi qonuni

Date: 17th October-2025

O'BEKISTON RESPUBLIKASINING 26.12.1997-yildagi OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI TO'G'RISIDAGI 541-sonli qonunida ommaviy axborot vositalariga quydagicha ta'rif beriladi;

Ommaviy axborot vositalari - Ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo'lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele-, radio-, video-, kinoxronikal dasturlar, Internet jahon axborot tarmog'idagi veb-saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan (bundan buyon matnda chiqariladigan deb yuritiladi), qonunchilikda belgilangan tartibda ro'yxatga olingan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari ommaviy axborot vositasidir.

Ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikning ahamiyati quydagilarda namoyon bo'ladi;

1. Axborotning keng qamrovda tarqalishi;

Ommaviy axborot vositalari yordamida davlat organlari, jumladan ichki ishlar vazirligi va boshqa tashkilotlar o'z faoliyati haqida keng jamoatchilikka tez va samarali axborot yetkazadi. Bu axborotlarning keng auditoriyaga yetib borishi jamiyatda xabardorlikni oshiradi.

2. Ijtimoiy muammolarni yoritishda hamkorlik;

Ommaviy axborot vositalari ijtimoiy muammolarni yoritishda muhim rol o'ynaydi. Ichki ishlar vazirligi bilan birga olib boriladigan kampaniyalar, masalan, jinoyatchilikning oldini olish, yo'l harakati xavfsizligi kabi mavzularni targ'ib qilishda samaradorlik oshadi.

3. "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonun

3. Fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish;

Ommaviy axborot vositalari orqali qonunlar, huquqiy normalar, fuqarolarning huquq va majburiyatlari haqida tushuntirishlar berilib, huquqiy savodxonlik darajasi oshiriladi. Bu esa jamiyatda qonunbuzarliklarni kamaytirishga yordam beradi.

4. Ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash;

Davlat organlari faoliyatining ochiq va shaffof bo'lishi uchun Ommaviy axborot vositalari bilan yaxshi hamkorlik zarur. Bu, ayniqsa, ichki ishlar vazirligi faoliyatida korrupsiya, huquqbuzarlik holatlarining oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

5. Davlat organlari va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi orasida ishonchni mustahkamlash;

Ommaviy axborot vositalari orqali to'g'ri, haqqoniy va o'z vaqtida berilgan axborot fuqarolarda davlat organlariga nisbatan ishonchni oshiradi. Bu esa ijtimoiy barqarorlik va tinchlikka xizmat qiladi.

6. Favqulodda vaziyatlarda tezkor axborot almashinuvi;

Ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik favqulodda vaziyatlarda, masalan, tabiiy ofatlar, yo'l-transport hodisalari yoki boshqa favqulodda holatlarda tezkor axborot yetkazishga imkon beradi, bu esa fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

7. Davlat organlari xodimlari bilan fuqarolar munosabatini yaxshilashda;



Date: 17th October-2025

Ommaviy axborot vositalari orqali davlat organlari fuqarolar bilan samarali muloqot qilishadi, ularning fikr va mulohazalarini eshitib, faoliyatini takomillashtirish imkoniga ega bo'ladi.

8. Ijtimoiy barqarorlikni saqlash va mustahkamlash

Axborotning to'g'ri va aniq yetkazilishi jamiyatda noto'g'ri tushunishlar va beqarorlikning oldini oladi, tinchlikni saqlashga yordam beradi.

Xulosa: Huquqbuzarliklarning ijtimoiy profilaktikasi jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash va fuqarolarning ongini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, axoli orasida sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning oldini olish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, huquqbuzarliklarning ijtimoiy profilaktikasini amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikni kuchaytirish katta ahamiyatga ega.¹⁵ Ommaviy axborot vositalari keng auditoriyaga qisqa vaqt ichida katta hajmdagi axborotni yetkazish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, favqulodda vaziyatlar, ijtimoiy muhim voqealar yoki huquqbuzarliklarning oldini olishda katta ahamiyat kasb etadi. Ommaviy axborot vositalari davlat va jamiyatdagi turli sohalarning faoliyatni yoritish orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi. Bu, o'z navbatida, davlat organlarining shaffofligi va mas'uliyatini oshiradi. Ommaviy axborot vositalari orqali fuqarolarga huquqiy, ijtimoiy va boshqa muhim ma'lumotlar yetkaziladi. Bu odamlarning huquq va majburiyatlarini bilishiga, xavfsizlik qoidalariga rioya qilishiga yordam beradi. Ommaviy axborot vositalari yordamida ijtimoiy muammolar, nizolar va tartibsizliklar haqida axborot tarqatilib, ularni oldini olish va hal qilishga katta ahamiyat kasb etadi. Ichki ishlar vazirligi va boshqa huquqni muhofaza qilish organlari ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilib, jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni ogohlantirish va huquqiy targ'ibot ishlarini samarali olib boradi.

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi.
2. "Huquqbuzarliklar Profilaktikasi to'g'risida"gi qonun
3. "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonun
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.06.2019 yildagi "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi PQ-4366-son qarori.

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.06.2019 yildagi "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi PQ-4366-son qarori.

